



XORAZM VILOYATIDA ICHIMLIK SUVI MUAMMOLARI

Kuchkarova Dilbar Pirlapasovna

Urganch davlat universiteti Geografiya kafedrasi o‘qituvchisi

Saparbayev Ulug‘bek Tursunboyevich

Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Xorazm viloyatida ichimlik suvi muammolari jiddiy ahamiyatga ega bo‘lib, bu hududda aholi salomatligi va hayot sifatiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu tadqiqotda ichimlik suvi ta’minoti, sifati va mavjud muammolar tahlil qilinadi. Xorazm viloyatidagi suv manbalarining holati, ularning ifloslanishi sabablari, shuningdek aholi tomonidan ichimlik suvi iste’moli bo‘yicha statistik ma’lumotlar keltiriladi. Tadqiqot natijalari asosida ichimlik suvini yaxshilash uchun takliflar beriladi hamda davlat va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: biodrenajlar, kollektor, oqava suvlar, qora izg‘or berish, sho‘rlanish, zah qochirish, vertikal drenajlar, chuchuq suv yostig‘i, subirrigatsiya, optimal muddat, yopiq drenaj, shimplgan suv.

Kirish: Orol dengizining qurib borishi, cho‘llashish jarayonining kuchayishi, daryo suvining haddan tashqari ifloslanishi, uning sho‘rlanish darajasining ortishi, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minalash masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Amudaryoga vohalardan oqib chiqqan zovur, oqava suvlarning tashlanishi oqibatida daryo suvi shu daraja ifloslanib ketdiki, qish va bahorning ayrim kunlarida uni iste’mol qilish nihoyatda qiyinlashmoqda.

Yozda Amudaryoda suv hajmi ko‘payganda uning minerallashuv darajasi har litr suvda 0.6-0.9, qishda esa 2.5 grammni tashkil qiladi. Suv qattiqlik darajasi bo‘yicha esa normal holatdan 1.5-2 marta oshib ketmoqda, bunday paytda undan ichimlik sifatida foydalanish umuman mumkin emas. Hozirgi kunda Tuyamo‘yin suv omborining bir bo‘lagi hisoblangan Karopas suv havzasiga bahorda Amudaryoning to‘lib oqqan vaqtidagi suvi jamg‘arilmoqda. U Tuyamo‘yin suv omboridan maxsus damba bilan ajralib turadi, chunki bu vaqtda Amudaryoga kollektorlar orqali kamroq sho‘r suv tashlanadi. Ichimlik suvi sifatida uning suvidan foydalanish hozirgi kunda yo‘lga qo‘yilgan.

Suvning sho‘rlanish darajasi har litr suvda 0.5-0.6 dan oshmagan paydagina bunday suv ichimlik sifatida yaroqli.



**MULTIDISCIPLINARY JOURNAL: FUNDAMENTAL
RESEARCH SCIENTIFIC JOURNAL**
VOLUME 1. ISSUE 1. JANUARY 2025.



Hozirgi kunda viloyat aholisini kuchli vodovodlar yordamida suv bilan ta'minlashga kirishildi. Ko'pchilik olimlar Quyi Amudaryo aholisini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash uchun Qashqadaryo, Zarafshon daryolarining yuqori oqimidan magistral quvurlar orqali ichimlik suvi keltirish maqsadga muvofiq deb hisoblamoqdalar.

Asosiy qism: Viloyatda ichimlik suvi muammosi tobora keskinlashib borayotgan bir davrda aholini toza suvgaga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun mavjud suvlarni maxsus apparat va jihozlar yordamida chuchuklashtirish masalasini ham tezroq hal etish payti keldi. 2001-yildan boshlab Yaponiya, Janubiy Koreya mamlakatlari viloyat aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida tozalovchi uskunalar yordamida Urganch, Xiva shahari aholisini toza suvgaga bo'lgan ehtiyojini qondirishni maqsad qilib qo'ydilar. Viloyat aholisini umuman Quyi Amudaryo regionida ishlayotgan aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashning asosiy yo'li Amudaryoga qishloq xo'jaligida va ishlab chiqarishda foydalanilgan turli xil oqava iflos suvlarini oqizmaslikdir. Ana shunday tadbirlarni amalga oshirgandagina daryo suvi uning quyi qismigacha iste'mol uchun yaroqli bo'ladi. Ammo hozirgi kunda bu masalani hal qilishning iloji yo'q, chunki, daryoga bir necha magistral kollektorlar, o'nlab zahkash suvi quyilmoqda. Ayni paytda Amudaryoning o'ng sohilida Termiz shahri yaqinidan boshlab, Orol dengizigacha bo'lgan masofada magistral kollektorlarning suvlarini yig'uvchi bosh kollektor "Sho'r daryo"ni qurish loyihalashtirilmoqda. Uning uzunligi 1500 km bo'lib, dengizga 8 kub km. suvni olib boradi. Uni 2000-yilgacha ishga tushirish mo'ljallan lekin afsuski bu loyiha amalga oshmay qolgan.

Viloyat va umuman suv xo'jaligini qayta tashkil qilish strategiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Xo'jalikni rivojlantirish strategiyasini mavjud suv resurslaridan samarali foydalanishga yo'naltirish;
- Qishloq xo'jaligi, sanoat va kommunal maishiy xo'jalikda suvni tejash texnologiyalarini keng joriy etish;
- Yuqori darajada minerallashgan suvdan ham foydalanishga o'tish;
- Daryo havzalarida va irrigatsiya rayonlarida suv taqsimlashning mexanizatsiya va avtomatizatsiya darajasini oshirish;
- Suv resurslaridan foydalanishning chiqindisiz tizimiga o'tish;
- Qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning optimal hajmini rejalashtirishning moslashuvchan tizimiga o'tish.



Muhokama: Viloyat relyefining haddan tashqari tekisligi yer osti suvlarining joylashishida murakkablik tug'dirmaydi. Yillik yog'in miqdorining juda kamligi yer osti suvlari uchun kerakli miqdorni berolmaydi. Amudaryo, ko'llar, ko'ptarmoqli sug'oruv sistemalari viloyat yer osti suvlarining shakllanishida katta rol o'ynaydi. Shu tufayli Amudaryo bo'yalarida va sug'oriladigan joylarda yer osti suvlari birmuncha sayoz joylashgan.

Aholi yashaydigan joylardan qancha uzoqlashgan sari yer osti suvlari bir muncha chuqurlasha boshlaydi.

Xorazm viloyati janubiy qismlarida yer osti suvlari 1 metrdan 4 metrgacha chuqurlikda uchraydi.

Amudaryodan g'arbga uzoqlashgan sari yer osti suvlari 4-6 metr chuqurlikgacha boradi. Qizilqum va Qoraqum bilan chegaradosh yerlarda yer osti suvi yanada chuqurlashadi.

Amudaryoning o'ng va chap tomonida 5-10 kilometr oraliqdagi hududlarda yer osti suvlari 1-1,5 metrdan boshlab uchraydi. Undan uzoqlashgan sari yer osti suvlari sathi chuqurlasha boshlaydi. Agar yerlarda dehqonchilik qilinmasa ular yana chuqurlashib 10-15 metrgacha borishi mumkin. Viloyat aholisining katta qismi ichimlik suvi sifatida yer osti suvlaridan foydalanadi. Ularning aksariyati 6-10 metr chuqurlikdagi suvlarni ishlatadi. Keyingi yillardagi qurg'qochilik yer osti suvlari sathining yanada pasayishiga olib kelmoqda.

Qishloq xo'jaligi ayniqsa, chorvachilikda ham yer osti suvlari ko'p ishlatiladi.

Xulosa va takliflar: Xorazm viloyatida ichimlik suvi muammolari, asosan, suv ta'minoti va sifatiga bog'liq masalalarini o'z ichiga oladi. Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi xulosalar va takliflarni keltirish mumkin:

Xulosa:

1. Suv ta'minoti: Xorazm viloyatida ichimlik suvi ta'minoti tizimi ko'plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ba'zi hududlarda suv yetkazib berish doimiy emas, bu esa aholi hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.
2. Suv sifati: Ichimlik suvi sifatining pasayishi, kimyoiy va biologik ifloslanishlar, shuningdek, yer osti suvlarining ifloslanishi muammolari mavjud.
3. Infratuzilma: Suv ta'minoti infrastrukturasi eskirgan yoki yaroqsiz holga kelgan, bu esa suv ta'minotini samarali yetkazib berishda to'sqinlik qilmoqda.



4. Resurslardan foydalanish: Suv resurslaridan foydalanishda samaradorlik pastligi va yo'qotishlar katta miqdorda bo'lishi muammo sifatida qolmoqda.

Takliflar:

1. Suv infratuzilmasini yangilash: Ichimlik suvi ta'minoti uchun zamonaviy infratuzilma yaratish va mavjud tizimlarni yangilash lozim.

2. Suvni tejash dasturlari: Aholi o'rtasida svuvi tejash bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish va suvdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish.

3. Sifat nazorati: Ichimlik suvi sifatini doimiy ravishda nazorat qilish uchun laboratoriylar tashkil etish va monitoring tizimini kuchaytirish.

4. Mahalliy boshqaruv: Mahalliy hukumat va jamoatchilik o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, aholi bilan muloqotni kuchaytirish orqali muammolarni aniqlash va hal qilishda faol ishtirok etishni ta'minlash.

5. Innovatsion texnologiyalar: Suv resurslarini to'g'ri boshqarish uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llash; masalan, suv qayta ishslash va tozalash tizimlarini joriy etish.

Ushbu takliflar Xorazm viloyatidagi ichimlik suvi muammolarini hal qilishda samarali bo'lishi mumkin. Har bir taklifning amalga oshirilishi uchun kerakli resurslar va hamkorlik zarurdir.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Ekoliya va Atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi (2019). "Xorazm viloyatining suv resurslari va ichimlik suvi ta'minoti holati". Hisobot.

2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi (2021). "Xorazm viloyatida ichimlik suvi sanitariya talablari va aholi salomatligiga ta'siri".

Research Science and Innovation House